

**YADRO FIZIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKA INSTITUTI**

**BOZAROV OYBEK AZAMIDDINOVICH**

**LANTANIDLAR VA AKTINIDLAR SOHASIDAGI  
DEFORMATSIYALANGAN JUFT-JUFT YADROLARNING  
DINAMIK VA STATIK NOAKSIALLIGI**

**01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashtiruvchi texnika**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
physical and mathematical sciences**

**Bozarov Oybek Azamiddinovich**

Lantanidlar va aktinidlar sohasidagi deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning dinamik va statik noaksiialligi..... 3

**Бозаров Ойбек Азамиддинович**

Динамическая и статическая неаксиальность деформированных четно-четных ядер в области лантанидов и актинидов..... 18

**Bozarov Oybek**

Dynamic and static triaxiality deformed even-even nuclei in the region lanthanides and actinides..... 34

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 38

**YADRO FIZIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKA INSTITUTI**

**BOZAROV OYBEK AZAMIDDINOVICH**

**LANTANIDLAR VA AKTINIDLAR SOHASIDAGI  
DEFORMATSIYALANGAN JUFT-JUFT YADROLARNING  
DINAMIK VA STATIK NOAKSIALLIGI**

**01.04.08 – Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi. Tezlashtiruvchi texnika**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1122 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nadirkbekov Makhmudjon Sulaymanovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmanov Pazlitdin Nuritdinovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Qosim**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**"Yangi O'zbekiston" universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel.: (+99871) 289-31-19).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Yu.Tashmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi f.-m.f.d., professor

**O.R.Tojiboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD.,  
katta ilmiy xodim

**S.B.Igamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,  
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Zamonaviy yadro strukturasi nazariyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri ham statik, ham dinamik noaksial deformatsiyalar va ularning aylanma-tebranma spektrlari tuzilishiga ta‘sirini o‘rganishdan iboratdir. Og‘ir juft-juft yadrolarning ko‘pgina kollektiv xususiyatlari, ayniqsa lantanid va aktinid sohalarida, multipol deformatsiyalar bilan tavsiflanadi. Bir vaqtning o‘zida kvadropol va oktupol deformatsiyalari bo‘lsa, juft-juft yadrolar o‘zgaruvchan juftlikdagi murakkab energiya spektriga ega bo‘ladi.

Energiya sathlari, o‘tish ehtimolliklari va aylanish polosalarining tuzilishi bo‘yicha zamonaviy eksperimental ma‘lumotlar aksial va noaksial deformatsiyalarni bir vaqtning o‘zida hisobga olishga qodir bo‘lgan universal nazariy modellarni yaratishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, deformatsiyalangan og‘ir yadrolarda kuzatiladigan o‘zgaruvchan juftlikdagi holatlarini tavsiflash uchun juda muhimdir. Spektroskopik o‘lchovlarning aniqligini oshirish y-rast va non-yrast polosalarning energiya spektrini,  $\Delta I=1$  staggering effektni tavsiflash imkonini beruvchi kollektiv o‘zgaruvchilarga asoslangan fenomenologik modellarni ishlab chiqish, shuningdek, E2-o‘tish ehtimolliklarining tarmoqlanishining batafsil tahlilini o‘tkazish kerak. Shunday qilib, K-aralashmali noaksial kvadropol-oktupol tebranishlarni hisobga oladigan murakkab yondashuvni yaratish va qo‘llash zamonaviy yadro fizikasi nazariyasining dolzarb muammolariga javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasida yadro fizikasini ham eksperimental, ham nazariy jihatdan rivojlantirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Atom yadrosi va elementar zarrachalar fizikasi sohasidagi fundamental tadqiqotlar yuqori ilmiy saviyada olib borilmoqda va mamlakatimiz ilmiy salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo‘nalishlarning ahamiyati “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi”da o‘z ifodasini topgan bo‘lib, unda davlatning barqaror rivojlanishi uchun ilm-fan va texnikani rivojlantirish ustuvorligi ta‘kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 13-fevraldagi PQ-2772-sonli “2017-2021-yillarda elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya tejankorligi va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarining ko‘plab olimlari juft-juft yadrolarning uyg‘ongan kollektiv

holatlarining statik va dinamik xususiyatlarini o'rganmoqdalar, xususan: bolgariyalik (N.Minkov, S.Drenska, P.Yotov), rossiyalik (E.V.Mardiban, T.M.Shneydman, E.A.Kolganova, R.V.Jolos), germaniylik ( W. Greiner, Amand Fessler, W. Scheid, M. Strecker), yunonistonlik (D. Bonatsos, D. Lenis, D. Petrellis), italyalik (L. Fortunato), belaruslik (Yu. V. Porodzinskiy, E. Sh. Suxovitskiy), ukrainalik (V. Yu. Denisov, A. Ya. Dzyublik), hindistonlik (J. B. Gupta, H. K. Mittal, S.Sharma, A.K.Kavathekar, Parveen Kumari), o'zbekistonlik (R.B.Begjanov, Sh.Sharipov, B.Ch.Choriev, G.A.Kulabdullaev, P.N.Usmonov, M.S.Nadirbekov, M.J.Ermamatov, S.N.Kudiratov, A.A.Oxunov, E.K.Yusupov) va boshqa mutaxassislar.

Tadqiqotlar natijasida sirt kvadrupol tebranishlarining turli xil potentsial energiyasi uchun Shredinger tenglamasining Bor Gamiltonian bilan yechimlari ko'rib chiqilgan. Biroq, bu ishlarda kollektiv aylanish natijasida yuzaga keladigan yuqori spinli holatlar tahlil qilinmaydi va ko'ndalang tebranishlarning hissasi umuman hisobga olinmaydi yoki faqat qisman hisobga olinadi.

Turli modellar asosida noaksial juft-juft yadrolarning o'zgaruvchan juftlikdagi uyg'ongan kollektiv holatlarning energiya spektri o'rganilgan. Biroq, bu yondashuvlarda yadroning inersiya momenti spinga bo'g'liq ravishda monoton ortadi deb taxmin qilinadi. Shu bilan birga, yadro shakli inersiya momentiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ham bo'ylama, ham ko'ndalang deformatsiyalarni hisobga olish zarur. Bu kvadrupol va oktopol deformatsiyalanuvchi yadrolarning noadiabatik kollektiv modelini yanada rivojlantirishni, shuningdek, polosalar ichidagi/orasidagi E2-o'tishlarning keltirilgan ehtimolliklarini to'la tarmoqlanishini tahlil qilishni talab qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan "Bir necha jism kvant fizikasi masalalarini yechish uchun yuqori samarali variatsion metodlarni rivojlantirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** noaksial aylanishlar va aksial kvadrupol-oktopol tebranishlarni tavsiflovchi hamda K-aralashmani hisobga oluvchi murakkab model yaqinlashuvi doirasida noaksial juft-juft yadrolarning o'zgaruvchan juftlikdagi kollektiv holatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kvadrupol va oktopol deformatsiyalangan noaksial juft-juft yadrolarning noadiabatik kollektiv modelning asosiy tenglamalarini aniqlash;

sirt tebranishlarining Davidson potentsial energiyasi uchun noaksial juft-juft yadrolarning uyg'ongan kollektiv holatlarining o'zgaruvchan juftlikdagi energetik spektri va to'lqin funktsiyalarining aniq ko'rinishdagi ifodalarini olish;

noaksial juft-juft yadrolarning yrast- va birinchi non-yrast polosalarning energiya spektrini hisoblash hamda ularni tajriba natijalari bilan solishtirish;

noaksial juft-juft yadrolarning yrast-polosa energiya spektridagi toq-juft  $\Delta I=1$  “staggering”-effekt ko‘rinishini tahlili, hamda ularni tajriba natijalari bilan qiyoslash;

noaksial juft-juft yadrolarning uyg‘ongan kollektiv holatlar energetik polosalar ichida/orasida keltirilgan E2-o‘tishlar ehtimolligini to‘la tarmoqlanishini tahlil qilish va bu holatlarda noaksiallik parametrining rolini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida lantanid va aktinid sohasidagi juft-juft yadrolar olingan.

**Tadqiqot predmetini** kvadrupol va oktopol erkinlik darajalarining kollektiv dinamikasi; noaksial juft-juft yadrolarning o‘zgaruvchan juftlikdagi uyg‘ongan kollektiv holatlari yrast-polosa energiya spektridagi “staggering”-effektning zig-zagsimon ko‘rinishi; noaksial juft-juft yadrolarning kollektiv uyg‘ongan holatlari energiya spektri polosalar ichida/orasida keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklarini to‘liq tarmoqlanishi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** kollektiv o‘zgaruvchilar bilan Shredinger tenglamasining yechimlari uchun kvant mexanikasining matematik apparati; FORTRAN tilida dasturlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

o‘zgaruvchan juftlikdagi uyg‘ongan kollektiv holatlarini shakllantirishning dinamik mexanizmini ta‘minlaydigan hamda K-aralashma va statik noaksiallikni hisobga oluvchi kvadrupol hamda oktopol deformatsiyalanuvchi noaksial juft-juft yadrolarning noadiabatik kollektiv modeli takomillashtirilgan;

taklif etilgan noadiabatik kollektiv model doirasida yumshoq (lantanoidlar) va qattiq (aktinoidlar) sirtga ega bo‘lgan noaksial juft-juft yadrolarning yrast- va birinchi non-yrast-polosalarning uyg‘ongan kollektiv holatlarining energetik spektri qoniqarli tavsiflangan.

takomillashtirilgan dinamik model doirasida olingan natijalarni tebranma harakatlar effektiv hisobga olinuvchi noaksial kvadrupol-oktopol adiabatik rotor yondashuvi bilan taqqoslash natijasida tebranma-aylanma bog‘lanishning muhimligi ko‘rsatilgan;

dinamik ixtiyoriy noaksiallik modeli doirasida kollektiv uyg‘ongan holatlari asosiy,  $\beta$ - va  $\gamma$ -polosalar ichida/orasida keltirilgan E2- o‘tishlari ehtimolliklarining  $\gamma_0$  noaksial parametriga sezgirligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

$^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{154,156}\text{Gd}$ ,  $^{156}\text{Dy}$ ,  $^{162}\text{Er}$ ,  $^{172}\text{Yb}$ ,  $^{220}\text{Ra}$ ,  $^{224,226,228,230,232}\text{Th}$ ,  $^{230,236,238}\text{U}$  va  $^{240}\text{Pu}$  juft-juft yadrolarning yrast- hamda birinchi-non-yrast polosalar energetik spektrlari hisoblangan, hamda nazariy natijalar eksperimental ma‘lumotlar bilan yaxshi mos kelishi ko‘rsatilgan;

takomillashtirilgan dinamik modelda ko‘ndalang  $\gamma$ -deformatsiyalar uchun effektiv potensialdan foydalanilganda asosiy va  $\beta$ - polosalar orasida E2-o‘tishlardan tashqari boshqa polosalar-aro E2-o‘tishlarning keltirilgan ehtimolliklari to‘liq tavsiflab bo‘lmasligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi** kvadрупol va oktupol deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning takomillashtirilgan noadiabatik kollektiv modelining fizik nuqtai nazardan asoslanganligi, hisob-kitoblarning eksperimental ma'lumotlar bilan muvofiqligi, qat'iy matematik apparatlardan foydalanish va muqobil nazariy yondashuvlar bilan taqqoslash bilan ta'minlanadi.

**Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar noaksial juft-juft yadrolarda o'zgaruvchan juftlikdagi uyg'ongan kollektiv holatlarning energetik spektrlari haqidagi fizik tasavvurlarni kengaytiradi.

Natijalarning amaliy ahamiyati kollektiv holatlarni tavsiflashning nazariy modellarini ishlab chiqish, eksperimental ma'lumotlarning talqinini optimallashtirish bilan belgilanadi. Olingan natijalar yadro texnologiyasi va eksperimental spektroskopiya sohasidagi amaliy tadqiqotlar uchun foydali bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Lantanidlar va aktinidlar sohasida deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning dinamik va statik noaksialigini o'rganish bo'yicha olingan natijalarga asoslanib:

statik noaksial kvadрупol-oktupol deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning noadiabatik kollektiv modeli takomillashtirilgan;

yumshoq (lantanidlar) va qattiq (aktinidlar) sirtga ega noaksial juft-juft yadrolarning yrast- va birinchi non-yrast-polosalarining uyg'ongan kollektiv holatlarining energiya spektrini tavsiflandi;

Og'ir juft-juft yadrolarning uyg'ongan kollektiv holatlari asosiy,  $\beta$ - va  $\gamma$ - polosalar ichida/orasida keltirilgan E2-o'tish ehtimolliklarini noaksiallik parametri  $\gamma_0$  sezgirligi, Malayziya Xalqaro Islom universitetida Oliy ta'lim vazirligi FRGS19-039-0647-sonli "Neytronga boy chuqur deformatsiyalangan lantanid yadrolarining uyg'ongan holatlari dinamikasi" (2019-2023) granti doirasida og'ir yadrolarning spektroskopik xususiyatlarini o'rganishda foydalanilgan (Malayziya Xalqaro Islom universitetining 2024 yil 18 dekabrda 007-KOE-24-sonli xati). Olingan natijalardan foydalanish ko'p nuklonli uzatish reaksiyalarida olingan reaksiya mahsulotlarining yashash davrini baholash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 99 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, tadqiqotning fan rivojining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasida fan va texnikani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi taqdim etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslantirilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarni amalga oshirish va ishning aprobatsiyasi haqida qisqacha ma‘lumot, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi berilgan.

Dissertatsiyaning “**Fenomenologik noadiabatik kollektiv modelning asosiy tenglamalari**” deb nomlangan birinchi bobida modelning asosiy tenglamalari keltirilgan. Kvadrupol va oktopol deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning kollektiv harakatining to‘la energiyasining aniq shakli olindi.

Kvadrupol va oktopol deformatsiyalanuvchi juft-juft yadrolarning umumiy nazariyasi yetti dinamik o‘zgaruvchini o‘z ichiga olgan Gamilton operatori bilan aniqlanadi  $\beta_2(\beta_2 \geq 0)$ ,  $\gamma(0 \leq \gamma \leq 2\pi/3)$ ,  $\beta_3(\beta_3 \geq 0)$ ,  $\eta(0 \leq \eta \leq \pi)$ ,  $\theta_1(0 \leq \theta_1 \leq 2\pi)$ ,  $\theta_2(0 \leq \theta_2 \leq \pi)$ ,  $\theta_3(0 \leq \theta_3 \leq 2\pi)$ :

$$\hat{H} = \hat{T}_{\beta_2} + \hat{T}_{\beta_3} + \hat{T}_{\gamma} + \hat{T}_{\eta} + \hat{T}_{rot} + V(\beta_2, \beta_3, \gamma, \eta), \quad (1)$$

bunda

$$\hat{T}_{\beta_2} = -\frac{\hbar^2}{2B_2} \frac{1}{\beta_2^4} \frac{\partial}{\partial \beta_2} \left( \beta_2^4 \frac{\partial}{\partial \beta_2} \right), \quad (2)$$

$$\hat{T}_{\beta_3} = -\frac{\hbar^2}{2B_3} \frac{1}{\beta_3^4} \frac{\partial}{\partial \beta_3} \left( \beta_3^4 \frac{\partial}{\partial \beta_3} \right), \quad (3)$$

$$\hat{T}_{\gamma} = -\frac{\hbar^2}{2B_2} \frac{1}{\beta_2^2 \sin(3\gamma)} \frac{\partial}{\partial \gamma} \left( \sin(3\gamma) \frac{\partial}{\partial \gamma} \right), \quad (4)$$

$$\hat{T}_{\eta} = -\frac{\hbar^2}{2B_3} \frac{1}{\beta_3^2} \left( \frac{\partial^2}{\partial \eta^2} + \frac{24 \cos^2 2\eta - 6 \cos 2\eta \cos \eta}{5 + 5 \cos 2\eta + 8 \cos^2 2\eta \sin \eta} \frac{\partial}{\partial \eta} \right). \quad (5)$$

(2), (3), (4) va (5) ifodalar, mos ravishda,  $\beta_2$ -,  $\beta_3$ -,  $\gamma$ - va  $\eta$ -tebranishlarning kinetik energiya operatorlari hisoblanadilar;  $V(\beta_2, \beta_3, \gamma, \eta)$  – yuqorida ko‘rsatilgan tebranishlarning potensial energiyasi va

$$\hat{T}_{rot} = \sum_{\kappa=1}^3 \frac{\hbar^2 \hat{I}_{\kappa}^2}{2J_{\kappa}}, \quad (6)$$

aylanma energiya operatori, bu yerda  $I_{\kappa}$  ( $\kappa=1, 2, 3$ ) – to‘la aylanma moment proyeksiyalari,  $J_{\kappa}$  – to‘la inersiya momenti proyeksiyalari, ular  $B_2$ ,  $B_3$  kvadrupol va oktopol deformatsiyalar massa parametrlariga hamda  $\beta_2$ ,  $\gamma$ ,  $\beta_3$ ,  $\eta$  deformatsiya parametrlariga bog‘liq.

Dissertatsiyaning “**Kvadrupol va oktopol deformatsiyalangan og‘ir noaksial juft-juft yadrolarning o‘zgaruvchan juftlikdagi kollektiv holatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida deformatsiyalangan noaksial juft-juft yadrolarning quyi

o'zgaruvchan juftlikdagi kollektiv holatlari o'rganildi. Uyg'ongan kollektiv holatlar yrast- va birinchi non-yrast-polosalar energetik sathlarini tavsiflash noadiabatik kollektiv model doirasida Davidson sirt tebranishlarining potensial energiyasi uchun amalga oshirildi.

(1) gamiltonian uchun Shredinger tenglamasining umumiy yechimi murakkab, shuning uchun turli soddalashtirishlar qo'llaniladi. Modelning shunday soddalashtirishlaridan biri Davydov-Chaban modelining analogi hisoblanadi, u modelga ko'ra,  $\gamma$  va  $\eta$  o'zgaruvchilar o'zlarining  $\gamma_{\text{eff}}$  hamda  $\eta_{\text{eff}}$  effektiv qiymatlari bilan almashtiriladi. U holda, (1) gamiltonian ushbu ko'rinishga keladi:

$$\hat{H} = \hat{T}_{\beta_2} + \hat{T}_{\beta_3} + \hat{T}_{rot} + V(\beta_2, \beta_3), \quad (7)$$

bunda

$$\hat{T}_{\beta_2} = -\frac{\hbar^2}{2B_2} \frac{1}{\beta_2^3} \frac{\partial}{\partial \beta_2} \left( \beta_2^3 \frac{\partial}{\partial \beta_2} \right), \quad (8)$$

$$\hat{T}_{\beta_3} = -\frac{\hbar^2}{2B_3} \frac{1}{\beta_3^3} \frac{\partial}{\partial \beta_3} \left( \beta_3^3 \frac{\partial}{\partial \beta_3} \right), \quad (9)$$

$$\hat{T}_{rot} = \sum_{\kappa=1}^3 \frac{\hbar^2 \hat{I}_{\kappa}^2}{2J_{\kappa}^2}, \quad (10)$$

bu holda aylanma energiya operatori (10)  $\gamma$  va  $\eta$  o'zgaruvchilarning effektiv qiymatlariga bo'liq bo'lib qoladi, ya'ni  $\gamma_{\text{eff}}$  va  $\eta_{\text{eff}}$ .

Endi (7) gamiltonian bilan Shredinger tenglamasini yozamiz:

$$\begin{aligned} & -\frac{\hbar^2}{2B_2} \left[ \frac{3}{\beta_2} \frac{\partial}{\partial \beta_2} + \frac{\partial^2}{\partial \beta_2^2} \right] \Psi_I^{\pm}(\beta_2, \beta_3, \theta) - \frac{\hbar^2}{2B_3} \left[ \frac{3}{\beta_3} \frac{\partial}{\partial \beta_3} + \frac{\partial^2}{\partial \beta_3^2} \right] \Psi_I^{\pm}(\beta_2, \beta_3, \theta) + \\ & + \left[ \hat{T}_{rot} + V(\beta_2, \beta_3) \right] \Psi_I^{\pm}(\beta_2, \beta_3, \theta) = E_I^{\pm} \Psi_I^{\pm}(\beta_2, \beta_3, \theta). \end{aligned} \quad (11)$$

Qutb koordinatalariga o'tamiz  $\sigma$  ( $0 \leq \sigma \leq \infty$ ) va  $\varepsilon$  ( $-\pi/2 \leq \varepsilon \leq \pi/2$ ):

$$\beta_2 = \sqrt{\frac{B}{B_2}} \sigma \cos \varepsilon, \quad \beta_3 = \sqrt{\frac{B}{B_3}} \sigma \sin \varepsilon, \quad B = \frac{B_2 + B_3}{2}. \quad (12)$$

$$\left\{ -\frac{\hbar^2}{2B_2} \left[ \frac{\partial^2}{\partial \sigma^2} + \frac{\partial}{\sigma \partial \sigma} + \frac{\partial^2}{\sigma^2 \partial \varepsilon^2} \right] + \hat{T}_{rot} + W(\sigma, \varepsilon) - E_I^{\pm} \right\} \Psi_I^{\pm}(\sigma, \varepsilon, \theta) = 0, \quad (13)$$

bu yerda

$$\hat{T}_{rot} = \frac{\hbar^2}{8B\sigma^2} \sum_{\kappa=1}^3 \frac{\hat{I}_{\kappa}^2}{J_{\kappa}^2}. \quad (14)$$

$J_{\kappa}$ - juft-juft yadroning keltirilgan o'lchamsiz inersiya momentining (yoki inert-siya momemti tenzorining) proyeksiyalari. Bu inersiya momenti  $\gamma_{\text{eff}}$ ,  $\eta_{\text{eff}}$  va  $\varepsilon$  kattaliklarga bog'liq. Oktupol deformatsiyalanuvchi yadrolarda potensial energiyaning  $\beta_{20}$ ,  $\beta_{30}$  va  $\beta_{20}$ ,  $-\beta_{30}$  yoki  $\sigma_0$ ,  $\varepsilon_0$  va  $\sigma_0$ ,  $-\varepsilon_0$  koordinatalar bilan aniqlanuvchi ikkita minimumi mavjud.  $V(\sigma_0, \varepsilon_0)$  potensial energiyani muvozanat

holatlar birining siljishi darajalari bo'yicha qatorga yoyib va kesishuvchi hadlarni hisobga olmasdan  $V$  potensial energiyani  $\sigma_0$  va  $\pm\varepsilon_0$  minimumlar atrofida ifodalaymiz:

$$V(\sigma, \varepsilon) = V(\sigma) + \frac{C_\varepsilon}{2\sigma^2}(\varepsilon \pm \varepsilon_0)^2, \quad (15)$$

$C_\varepsilon$  –  $\varepsilon$ -tebranishlar bikrlilik parametri. (15)-ifodadagi ikkinchi qo'shiluvchi doyimiy qiymat qabul qiladi, agar  $\varepsilon = \varepsilon_0$  deb tasavvur qilsak.

Tenglama (13) ning umumiy yechimi juda murakkab. Faraz qilamiz:

$$\Psi_{I_\tau}^\pm(\sigma, \theta) = F_{I_\tau}^\pm(\sigma)\Phi_{IM_\tau}^\pm(\theta), \quad (16)$$

bunda  $M$  – to'la aylanma moment  $I$  ning laboratoriya koordinatalar sistemasidagi uchinchi o'qqa proyeksiyasi.

Aylanma harakat qismi uchun Shredinger tenglamasini olamiz:

$$\left[ \frac{1}{2} \sum_{\kappa=1}^3 \frac{I_\kappa^2}{J_\kappa^2} - \epsilon_{I_\tau}^\pm \right] \Phi_{IM_\tau}^\pm(\theta) = 0. \quad (17)$$

Hamda  $\sigma$  o'zgaruvchi uchun Shredinger tenglamasi:

$$\left\{ -\frac{\hbar^2}{2B_2} \left[ \frac{\partial^2}{\partial \sigma^2} + \frac{\partial}{\sigma \partial \sigma} \right] + \frac{\hbar^2 \epsilon_{I_\tau}^\pm}{4B\sigma^2} + V(\sigma) - E_{I_\tau}^\pm \right\} F_{I_\tau}^\pm(\sigma) = 0, \quad (18)$$

Bu yaqinlashuvda  $\gamma_{\text{eff}}$  va  $\eta_{\text{eff}}$  deformatsiyaning effektiv parametrlari hisoblanadi. Shunday qilib, biz keltirilgan inersiya momentlari  $J_\kappa = J_\kappa(\gamma_{\text{eff}}, \eta_{\text{eff}})$  ikkita parametrlarga bog'liq deb tasavvur qilamiz. Bu yerda (12) qutb koordinatalarini hisobga olgan holda dinamik o'zgaruvchilar uchun (14) tenglamada  $\hbar^2/(8B\sigma^2)$  ko'paytmani olamiz.

(17) tenglamaning  $\varepsilon$  o'zgaruvchi uchun yechimi juda murakkab, shuning uchun birinchi yaqinlashuvda  $\varepsilon$  o'zgaruvchining yadroning muvozanat holatidagi qiymatini foydalanamiz, ya'ni  $\varepsilon_0$ . U holda (17) tenglamadagi o'lchamsiz  $\epsilon_{I_\tau}$  energetik kattalik  $\gamma_{\text{eff}}, \eta_{\text{eff}}, \varepsilon_0$  parametrlarning funksiyasi hisoblanadi.

(18) tenglama yechimini topish uchun,  $V(\sigma)$  kattalikni Davidson potentsiali ko'rinishida olamiz:

$$V(\sigma) = V_0 \left( \frac{\sigma}{\sigma_0} - \frac{\sigma_0}{\sigma} \right)^2, \quad (19)$$

bunda  $V_0$  va  $\sigma_0$  – mos ravishda, asosiy holat potensial energiyasi va deformatsiya parametri.

(18) tenglama to'lqin funksiyalarini topamiz:

$$F_{I_\tau}^\pm(x) = N_\sigma x^s e^{-\frac{x}{2}} F(-n, 2s+1, x), \quad (20)$$

bunda  $N_\sigma$  – normallashtiruvchi koeffitsiyenti,  $F(-n, 2s+1, x)$  – konflyuent gipergeometrik funksiya,  $n=0,1,2,\dots$  –  $\sigma$ -tebranishlarning kvant soni, ta'qidlaymizki  $n = 0$  yrast-polosa energetik sathlariga mos keladi,  $n = 1$  birinchi non-yrast-polosa energetik sathlariga mos keladi va hokozalar,  $x = 2BV_0\sigma^2 / (\hbar\sigma_0)$ .

Energetik spektr

$$E_{nr}^\pm = \left[ 2n + 1 + \sqrt{\frac{\epsilon_{nr}^\pm}{2} + \frac{1}{\mu^4}} \right] \hbar\omega - 2V_0, \quad (21)$$

bunda  $\mu = \hbar^2 / (2BV_0\sigma_0^2)$  – noadiabatlik parametri.

Taklif etilgan yaqinlashuvda ushbu parametrlar foydalanildi: energetik faktor  $\hbar\omega$  (keV), kvadrupol noaksiiallik  $\gamma_{\text{eff}}$  (graduslarda), oktopol noaksiiallik  $\eta_{\text{eff}}$  (graduslarda), qutb koordinatalarida muvozanat holati parametri  $\epsilon_0$  (graduslarda) va noadiabatiklik parametri  $\mu$  (o'lchamsiz). Noaksiiallik parametrlarining o'zgarish sohalari  $0^0 < \eta_{\text{eff}} < 180^0$ ,  $0^0 < \gamma_{\text{eff}} < 180^0$  va  $-90^0 < \epsilon_0 < 90^0$ .


Assimetriya parametri  $\gamma_{\text{eff}}$  ni hisoblash uchun ko'plab nazariy yondashuvlar mavjud, shulardan,  $R_{4/2} = E_{4+}/E_{2+}$  va E2-o'tish ehtimoligini tajribalarda o'lchashdan iborat. Davydov va Filippov, shuningdek, Varshni va Bose  $\gamma_{\text{eff}}$  aniqlash uchun  $R_{4/2}$  munosabatidan foydalanganlar. E2-o'tish tezligidan  $\gamma_{\text{eff}}$  ni hisoblash noaniq qiymatlarga olib keladi, ishonchli qiymatlar esa  $\gamma_{\text{eff}}$  energiya sathlarning qiymatlaridan olingan.

Oktopol  $\eta$  assimetriya parametrining qiymatlari baholanmagan. Bunday harakatlar bo'lgan, unda  $^{228}\text{Th}$  va  $^{232,234}\text{U}$  dagi manfiy juftlik holatlari bo'yicha tajriba ma'lumotlar uchta assimetrik rotator modellarning bashoratlari orqali taqqoslangan: sof kvadrupol, sof oktopol va aralash kvadrupol/oktopol. Sof kvadrupol va oktopol modellarida assimetriya parametrlari  $\gamma$  hamda  $\eta$ , shuningdek, noadiabatik parametr  $\mu$  erkin parametrlardir. Biroq  $^{232}\text{U}$  va  $^{234}\text{U}$  manfiy juftlik sathlari solishtirilganda, ularga mos keladigan  $\beta$ -tebranma polosa energetik sathlari mavjud emas, shuning uchun  $\mu$  qiymati musbat juftlik energetik sathlari taxminiy birinchi tartib sifatida ishlatiladi. Aralash kvadrupol-oktopol modeli  $\gamma$ ,  $\mu$  qiymatlarini va musbat juftlik moslashuvidan umumiy masshtab faktor ishlatiladi hamda faqat  $\eta$  va  $D=B_3\beta_3^2/(B_2\beta_2^2)$  parametrlarini o'zgartiradi va manfiy juftlik sathlariga mos keladi. Shunday qilib, mualliflar barcha uchta modelda manfiy juftlik sathlarini tavsiflash uchun bir xil miqdordagi erkin parametrlar mavjud degan xulosaga kelishdi. Ular X(5) modelida bo'lgani kabi,  $\gamma$ -deformatsiyaning ta'sirini oddiy baholashni  $\gamma = 0$  atrofida kichik o'zgarishlar orqali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatishgan.

Dissertatsiya ishida  $\beta_2$ - $\beta_3$  fazoda kollektiv harakat paytida  $\gamma$ -deformatsiya ta'sirining mumkin bo'lgan usullari va noaksiiallikni hisobga olish imkoniyati ko'rib chiqildi, oktopol erkinlik darajasi qayd etildi. Bundan tashqari, kvadrupol va oktopol erkinlik darajalarining noaksiialligi effektiv hisobga olinadi hamda  $\beta_2$  va  $\beta_3$  dinamik o'zgaruvchilar holida  $\gamma_{\text{eff}}$  hamda  $\eta_{\text{eff}}$  kattaliklar parametr sifatida ishlatildi.

O'rganilayotgan  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{172}\text{Yb}$ ,  $^{228,230,232}\text{Th}$ ,  $^{232,234,236,238}\text{U}$  va  $^{240}\text{Pu}$  yadrolar uchun  $\hbar\omega$ ,  $\gamma_{\text{eff}}$ ,  $\eta_{\text{eff}}$ ,  $\epsilon_0$ ,  $\mu$  parametrlarning hamda o'rta kvadratik og'ishlarning RMS (keVlarda) qiymatlari olindi. 1-rasmida  $^{150}\text{Nd}$  (*a*),  $^{154}\text{Sm}$  (*b*) yadrolarning yrast-

va birinchi non-yrast-polosalarining energiya sathlarining nazariy hamda eksperimental qiymatlari solishtirilgan.



**1-rasm.  $^{150}\text{Nd}$  (a)  $\hbar\omega = 332.81$  keV,  $\gamma_{\text{eff}} = 67.95^0$ ,  $\eta_{\text{eff}} = 61.73^0$ ,  $\varepsilon_0 = 0.0012^0$ ,  $\mu = 0.7272$ , RMS = 60.98 keV,  $^{152}\text{Sm}$  (b)  $\hbar\omega = 327.33$  keV,  $\gamma_{\text{eff}} = 67.5^0$ ,  $\eta_{\text{eff}} = 26.28^0$ ,  $\varepsilon_0 = 0.0069^0$ ,  $\mu = 0.7982$ , RMS = 148.92 keV, yadrolarning uygʻongan holatlarining nazariy va tajriba qiymatlari**

Tadqiqotda yrast va birinchi non-yrast-polosalar energetik sathlarining nazariy hamda tajriba qiymatlarini taqqoslanishi keltirilgan. Barcha yadrolar uchun yrast va birinchi non-yrast-polosalar energetik sathlarining nazariy hamda tajriba qiymatlari taqdim etilgan koʻrinishi tajriba maʼlumotlari bilan yaxshi mos keladi, shu jumladan, yuqori spinli holatlar,  $^{236,238}\text{U}$  va  $^{240}\text{Pu}$  yadrolari birinchi non-yrast-polosada bundan mustasno. Har bir koʻrib chiqilgan yadro uchun RMS qiymatlari  $\sim 100$  keV oraligʻida oʻzgarib turadi, bu taklif qilingan modelni qoʻllash uchun yaxshi mezondir. Dissertatsiya ishida taklif etilgan modelning RMS qiymatlari va adiabatik yaqinlashuvdagi kvadrupol-oktupol noaksial rotor model RMS qiymatlari solishtirildi. RMSning barcha qiymatlari noaksial rotor modelning qiymatlaridan bir necha barobar kichik. Bu natija, modelga tebranma harakatni hisobga olish bilan bogʻliqdir.

Energetik faktor qiymatlari,  $^{232}\text{U}$  da  $\hbar\omega=268$  keV dan va  $^{154}\text{Sm}$  da  $\hbar\omega=810$  keV oraligʻida oʻzgarib turadi, bu oxirgi yadroning kollektiv harakatiga sirt tebranishining kuchli hissasini koʻrsatadi. Shu bilan birga,  $\mu$  parametrining qiymatlari  $^{232}\text{U}$  da  $\mu=0.576$  da “kuchli noadiabatikalik” va  $^{240}\text{Pu}$  da  $\mu=0.240$  da “zaif noadiabatiklik”ni koʻrsatadi. “Kuchli noadiabatikalik”ni mavjudligi  $^{232}\text{U}$  yadrosida tajriba bilan yaxshi kelishuvga erishish qiyinligini qoʻshimcha tushuntirishi mumkin. Shuningdek, biz shuni taʼkidlaymizki, parametrlarning olingan qiymatlari nuqtai nazaridan “zaif noadiabatiklik” past energiyali tebranish rejimini anglatmaydi, masalan,  $^{240}\text{Pu}$  da tebranish chastota koeffitsiyenti  $\hbar\omega=698$  keV unchalik katta emas. Shakl parametrlariga kelsak, aksariyat yadrolarda  $\varepsilon_0$  qiymatlari  $\varepsilon_0=10^{-3} \div 10^{-4}$  tartibida, bu asosiy holatda oktupol rejimidan, odatda, kichik hissa qoʻshishini koʻrsatadi ((11) tenglamaga qarang), ( $^{230}\text{U}$  va  $^{232}\text{U}$  dan tashqari), bu yerda  $\varepsilon_0$  mos ravishda  $4^0$  va  $10^0$  qiymatlarini oladi. Boshqa tomondan,  $\gamma_{\text{eff}}$  va  $\eta_{\text{eff}}$

ning olingan qiymatlari turli darajadagi kvadrupol hamda oktopol noaksiallikni bildiradi, ular ko‘rib chiqilayotgan barcha yadrolarning o‘zgaruvchan juftlik spektrlarida o‘zini namoyon qiladi.

“Staggering” effektlar aylanma momentlarning bir necha birligi bilan farq qiluvchi holatlar ketma-ketligidagi aylanma polosalarining tarmoqlanishini ifodalaydi. Bunday  $\Delta I = 1$ ,  $\Delta I = 2$ ,  $\Delta I = 4$  “staggering” effektlar o‘ta og‘ir deformatsiyalangan yadrolarning energiya sohalarida kuzatiladi. Ushbu effektlar juft-juft yadrolarda juda yaxshi ma‘lum va turli xil kollektiv modellarni sinab ko‘rishga imkon beradi.

Bunday polosa lantanidlarda va aktinidlarda kuzatiladi. Juft-juft yadrolarning bu polosalarida I ning toq qiymatli manfiy-juftlikdagi energiya sathi va I ning juft qiymatli musbat-juftlikdagi energiya sathiga nisbatan siljiydi. Ya‘ni I qiymatli energiya sathi  $I \pm 1$  qiymatli energiya sathiga nisbatan ko‘chadi. Odatda, toq-juft “staggering” yoki  $I^\pi = \pm 1$  “staggering” deb ataladigan bu miqdor, agar juft va toq energiya sathlari bitta polosani tashkil qilsa, yo‘qolib ketishi kerak.

Dissertatsiya ishida ushbu effektning tahlili va talqini alohida qiziqish uyg‘otadi, chunki u yadrolarning turli sohalarida kollektiv dinamikaning xususiyatlari haqida ma‘lumotni o‘z ichiga oladi va aylanma spektrining nozik tuzilishiga juda sezgir va  $K \geq 0$  turli aylanma polosalarida aniq  $\Delta I = 1$  “staggering”ni ta‘minlaydi.


$\Delta I = 1$  “staggering”-effektning aylanma momentning funksiyasi sifatida energiyaning beshinchi hosilasi orqali miqdoriy ifodalash mumkin:

$$Stag(I) = 6\Delta E(I) - 4\Delta E(I-1) - 4\Delta E(I+1) + \Delta E(I+2) + \Delta E(I-2), \quad (22)$$

bunda  $\Delta E(I) = E(I+1) - E(I)$ . Agar aylanma momentning toq va juft qiymatli sathlari yagona polosani tashkil etsagina, bu kattalik nolga aylanadi hamda agar ketma-ket sathlar bir-biriga nisbatan siljisa turli zigzag ko‘rinishlarni ifodalaydi.

Ko‘pgina yadrolarda tajribadagi “staggering” funksiyasi kuchli zigzag ko‘rinishni namoyon qiladi va amplitudasi asta-sekin kattaroq aylanma momentiga qarab kamayadi. Biroq bir nechta yadrolar <sup>228,230</sup>Th, <sup>232</sup>U va <sup>240</sup>Pu juda yuqori aylanma momentida bir jinslilikni namoyon qiladi. Ular yadroning ichki tuzilishidagi ma‘lum o‘zgarishlarni ko‘rsatadi, bu esa aylanadigan kvadrupol-oktopol shaklining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. 2-rasmda <sup>154</sup>Gd (chapda) va <sup>154</sup>Sm (o‘ngda) yadrolarning o‘zgaruvchan juftlik spektridagi  $\Delta I = 1$  “staggering”- effektning nozik strukturasi yaxshi tasvirlaydi.

Yuqorida olingan natijalar va RMS qiymatlari birgalikda tavsiya etilgan modelni tavsiflash sifati noaksial lantanid hamda aktinid yadrolarda kvadrupol-oktopol aylanma-tebranma noadiabatik yondashuvning dolzarbligini ko‘rsatadi.



**2-rasm.  $^{154}\text{Gd}$  ( $\hbar\omega=726.06$  keV,  $\mu=0.3665$ ,  $\varepsilon_0=0.0^0$ ,  $\gamma_{\text{eff}}=53.93^0$ ,  $\eta_{\text{eff}}=47.9^0$ ,  $\text{RMS}=72.73$  keV) va  $^{154}\text{Sm}$  ( $\hbar\omega=459.3$  keV,  $\mu=0.4661$ ,  $\varepsilon_0=0.0015^0$ ,  $\gamma_{\text{eff}}=67.07^0$ ,  $\eta_{\text{eff}}=60.83^0$ ,  $\text{RMS}=118.12$  keV) yadrolar uchun “staggering”-effektning nazariy va tajriba ko‘rinishi**

Dissertatsiyaning “**Kvadrupol deformatsiyalangan juft-juft yadrolarda noaksiallik dinamikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida juft-juft og‘ir yadrolarda kvadrupol uyg‘onishda noaksiallikning roli o‘rganildi, noaksial model doirasida  $\gamma$  va  $\beta$  o‘zgaruvchilar dinamik kattaliklardir. Davidson potentsiali  $\gamma$  va  $\beta$  o‘zgaruvchilari uchun foydalanildi. Uyg‘ongan kollektiv holatlarning energetik spektri ifodasida, aylanma energiya operatorini ( $\gamma-\gamma_0$ ) darajalari bo‘yicha qatorga yoyilishi hisobga olinadi.

Taqdim etilgan model doirasida keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklari noaksiallik parametri  $\gamma_0$  ning butun o‘zgarish diapazonida va asosiy-,  $\beta$ -,  $\gamma$ -polosalardagi ichida/orasida- keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklari tarmoqlanishi og‘ir juft-juft yadrolarda o‘rganiladi. Asosiy,  $\gamma$ - va  $\beta$ -polosalar ichida/orasida keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklari  $\gamma_0$  noaksiallik parametriga sezgirliigi tahlil qilindi. Dinamik  $\gamma$  tebranishlarining keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklariga hissasi taqribiy hisobga olindi.

Quyida asosiy-polosa ichidagi keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklari parametr  $\gamma_0$  ning  $0^0 \leq \gamma_0 \leq 20^0$  oralqdagi qiymatlarida uning o‘zgarishiga sezgir emas va  $\gamma_0$  ning  $20^0 \leq \gamma_0 \leq 30^0$  oralig‘idagi qiymatlari uchun E2-o‘tishlarning sezgirliigi ortadi. Bu o‘tishlar deyarli barcha og‘ir deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning, shu jumladan, yuqori spinli holatlarning kollektiv uyg‘onish spektrlarida kuzatiladi. Hamda, E2-o‘tishlar  $\mu_\beta$  deformatsiya parametriga sezgir emas. Chunki bu, asosan, aylanma-polosadir.

Asosiy- va  $\beta$ -polosalardagi keltirilgan E2-o‘tish ehtimolliklarining ko‘rinishi o‘xshash, ammo  $\beta$ -polosadagi E2-o‘tish ehtimolliklari qiymatidan ancha katta. Parametr  $\gamma_0$  ning kichik qiymatlarida bu o‘tishlar ham ushbu parametrdagi o‘zgarishlarga nisbatan sezgir emas. Hamda ularning amplituda qiymatlari  $\gamma_0$  o‘zgaruvchan parametrda bir oz farq qiladi. E2-o‘tish ehtimolliklarga deformatsiyaning ta‘siri sezilarli. Bu E2-o‘tishlarning kattaligi  $\mu_\beta$  deformatsiya parametrining ortishi bilan kamayadi. Ularning amplituda qiymatlari deformatsiya parametri  $\mu_\beta$  oshishi bilan kamayadi.  $b(E2, 2I_\beta \rightarrow (2I-2)_\beta)$  o‘tishlari eng og‘ir

deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi. Chunki bu polosa tebranma-aylanmadir.

$\gamma$ -polosa ichida juft, toq va aralash spinlar orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari alohida taqdim etildi. Juft spinlar orasidagi ehtimolliklar murakkab koʻrinishga ega. Keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari parametr  $\gamma_0$  ning oʻzgarishlariga oʻta sezgir. Deformatsiyaning bu ehtimolliklarga taʼsiri ancha yuqori. Ushbu ehtimolliklarning qiymati  $\mu_\beta$  parametrining oshishi bilan ortadi. Chunki bu polosa tebranma-aylanmadir. Bu ehtimolliklar ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{164,166,168}\text{Er}$ .

$\gamma$ -polosa toq spinlari orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari yanada murakkab koʻrinishga ega. E2-oʻtish ehtimolliklarinig deformatsiyaning oʻzgarishiga sezgirligi yuqori. Ularning qiymati  $\mu_\beta$  parametrining oshishi bilan ortadi. Chunki bu polosa tebranma-aylanmadir. Bu oʻtishlar ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{166,168}\text{Er}$ . Eʼtibor qiling,  $\gamma$  polosaning toq va juft spinlari orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklarining koʻrinishi boshqa-boshqa.

$\gamma$ -polosa aralash spinlari orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari yanada murakkab koʻrinishga ega. E2-oʻtish ehtimolliklarinig deformatsiyaning oʻzgarishiga sezgirligi yuqori. Bu oʻtishlar ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{152}\text{Sm}$  va  $^{166,168}\text{Er}$ .

Endi asosiy-,  $\beta$ -,  $\gamma$ -polosalar orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari oʻrganildi.  $b(E2, 2I_\gamma \rightarrow (2I-2)_1)$  parametr  $\gamma_0$  ning oraliqlardagi  $20^\circ \leq \gamma_0 \leq 30^\circ$  oʻzgarishlariga oʻta sezgir. Bu oʻtishlar ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{156,158}\text{Dy}$ ,  $^{156}\text{Gd}$ ,  $^{162,164,166,168}\text{Er}$ ,  $^{188}\text{Yb}$ ,  $^{230,232}\text{Th}$ ,  $^{234,238}\text{U}$ .

Polosalar-aro keltirilgan E2-oʻtish  $b(E2, 2I_\gamma \rightarrow 2I_1)$  ehtimolliklari ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{156,158}\text{Dy}$ ,  $^{156}\text{Gd}$ ,  $^{162,164,166,168}\text{Er}$ ,  $^{188}\text{Yb}$ ,  $^{230,232}\text{Th}$ ,  $^{234,238}\text{U}$ .  $b(E2, (2I_\beta \rightarrow (2I-2)_1))$  ehtimolliklari esa ushbu juft-juft yadrolarning kollektiv uygʻonish spektrlarida kuzatiladi:  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{156,158}\text{Dy}$ ,  $^{156}\text{Gd}$ ,  $^{162,164,166,168}\text{Er}$ ,  $^{188}\text{Yb}$ ,  $^{230,232}\text{Th}$ ,  $^{234,238}\text{U}$ .

Kollektiv uygʻonish spektridagi  $\beta$ - va  $\gamma$ -polosalar orasidagi keltirilgan E2-oʻtish ehtimolliklari:  $b(E2, 2I_\beta \rightarrow 2I_\gamma)$   $^{152}\text{Sm}$ ,  $^{168}\text{Er}$  yadrolarda;  $b(E2, 2I_\gamma \rightarrow (2I-2)_\beta)$   $^{152}\text{Sm}$ ,  $^{156}\text{Gd}$  yadrolarda;  $b(E2, (2I+1)_\gamma \rightarrow 2I_{-1})$   $^{152}\text{Sm}$ ,  $^{156}\text{Gd}$ ,  $^{166,168}\text{Er}$  yadrolarda;  $b(E2, (2I+1)_\gamma \rightarrow 2I_\beta)$   $^{168}\text{Er}$  yadroda kuzatiladi.

## XULOSA

“Lantanidlar va aktinidlar sohasidagi deformatsiyalangan juft-juft yadrolarning dinamik va statik noaksiialligi” mavzusidagi fizika-matematika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi asosiy xulosalar taqdim etildi:

1. Kvadrupol va oktopol deformatsiyalanuvchi noaksial juft-juft yadrolar uchun Gamilton operatori bilan sirt tebranishlarining Davidson potentsiali uchun Shredinger tenglamasining analitik yechimi olindi. Noaksial juft-juft yadrolarning

o'zguruvchan juftlikdagi kollektiv holatlarining energetik spektri va to'lqin funksiyalarining aniq ko'rinishdagi ifodalari topildi.

2.  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{154,156}\text{Gd}$ ,  $^{156}\text{Dy}$ ,  $^{162}\text{Er}$ ,  $^{172}\text{Yb}$ ,  $^{220}\text{Ra}$ ,  $^{224,226,228,230,232}\text{Th}$ ,  $^{230,236,238}\text{U}$  va  $^{240}\text{Pu}$  juft-juft yadrolarning yrast- hamda birinchi-non-yrast polosalar energetik spektri hisoblandi. Eksperimental va nazariy natijalar bilan solishtirildi hamda qoniqarli moslikga erishildi. Og'ir juft-juft yadrolarning noaksial shaklini hisobga olib taklif etilgan noadiabatik kollektiv modelning dolzarbligi ko'rsatildi.

3.  $^{150}\text{Nd}$ ,  $^{152,154}\text{Sm}$ ,  $^{154,156}\text{Gd}$ ,  $^{156}\text{Dy}$ ,  $^{162}\text{Er}$ ,  $^{172}\text{Yb}$ ,  $^{226,228,230,232}\text{Th}$ ,  $^{230,236,238}\text{U}$  va  $^{240}\text{Pu}$  juft-juft yadrolarning yrast-polosa energetik spektrida  $\Delta I=1$  "staggering"-effektning zigzagsimon ko'rinishi aniqlandi.  $\Delta I=1$  "staggering"-effektning ko'rinishi qaralayotgan yadrolardagi o'zguruvchan juftlikdagi spektrning nozik strukturasi yaxshi tasvirlaydi.

4. Asosiy,  $\beta$ - va  $\gamma$ -polosalar ichida/orasida keltirilgan E2-o'tishlar ehtimolliklarining barcha tarmoqlanishlari tahlil qilindi. Taklif etilgan model doirasida polosalar ichidagi E2-o'tishlarning keltirilgan ehtimolliklari yaxshi tavsiflanadi. Asosiy va  $\beta$ - polosalar orasida E2-o'tishlardan tashqari boshqa polosalar-aro E2-o'tishlarning keltirilgan ehtimolliklari ushbu model doirasida tavsiflanmasligi ko'rsatildi, chunki qo'llanilgan modelda ko'ndalang  $\gamma$ -deformatsiyalar uchun effektiv potensial foydalanilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM/Т.33.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

---

**ИНСТИТУТ ЯДЕРНОЙ ФИЗИКИ**

**БОЗАРОВ ОЙБЕК АЗАМИДИНОВИЧ**

**ДИНАМИЧЕСКАЯ И СТАТИЧЕСКАЯ НЕАКСИАЛЬНОСТЬ  
ДЕФОРМИРОВАННЫХ ЧЕТНО-ЧЕТНЫХ ЯДЕР В ОБЛАСТИ  
ЛАНТАНИДОВ И АКТИНИДОВ**

**01.04.08 – Физика атомного ядра и элементарных частиц. Ускорительная техника**

**АВТОРЕФЕРАТ**

диссертации доктора философии (PhD) по физико–математическим наукам

**Ташкент – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико–математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/FM1122.

Диссертация выполнена в Институте ядерной физики Академия наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziynet» ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Надырбеков Махмуджон Сулайманович**  
доктор физико-математических наук,  
старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:**

**Усманов Пазлитдин Нуритдинович**  
доктор физико-математических наук,  
профессор

**Олимов Косим**  
доктор физико-математических наук,  
профессор

**Ведущая организация:**

**Университет «Новый Узбекистан»**

Защита диссертации состоится «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 при Институте ядерной физики (Адрес: 100214, Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУ. Тел. (+99871) 289-31-41; факс (+99871) 289-36-65; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ядерной физики (регистрирована за № \_\_\_\_\_). Адрес: 100214, Ташкент, пос. Улугбек, ИЯФ АН РУз. Тел. (+99871) 289-31-19.

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.  
(протокол рассылки № “\_\_\_” от \_\_\_\_\_ 2025 г.)

**М.Ю. Ташметов,**  
председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
д.ф.-м.н., профессор

**О.Р. Тожибоев**  
ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней, PhD ф.-м.н.,  
старший научный сотрудник

**С.И. Игамов**  
председатель научного семинара при  
Научном совете по присуждению  
ученых степеней, д.ф.-м.н.,  
старший научный сотрудник

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Одним из ключевых направлений современной теории ядерной структуры является исследование как статических, так и динамических неаксиальных деформаций и их влияния на структуру вращательно-колебательных спектров. Многие коллективные свойства тяжелых четно-четных ядер, особенно в области лантанидов и актинидов, обусловлены мультипольными деформациями. В случае одновременного существования квадрупольной и октупольной деформаций, спектр четно-четных ядер приобретает сложный спектр энергетических уровней с переменной четностью.

Современные экспериментальные данные по энергетическим уровням, вероятностям переходов и структуре вращательных полос требуют построения более универсальных теоретических моделей, способных одновременно учитывать аксиальные и неаксиальные деформации. Это особенно важно для описания состояний переменной четности, наблюдаемых в четно-четных деформированных тяжелых ядрах. В условиях роста точности спектроскопических измерений необходимо развитие феноменологических моделей, основанных на коллективных переменных, которые позволяют описывать энергетический спектр  $\gamma$ - и non- $\gamma$ -полос,  $\Delta I=1$ -staggering эффектов, а также проводить детальный анализ разветвлений внутри/полосных вероятностей  $E2$ -переходов. Таким образом, построение и применение комбинированного подхода, учитывающего неаксиальные квадрупольно-октупольные колебания с учетом  $K$ -смешивания, отвечает актуальным задачам современной теории ядерной физики.

В Республике Узбекистан вопросам развития ядерной физики — как в экспериментальном, так и в теоретическом аспектах — уделяется особое внимание. Фундаментальные исследования в области физики атомного ядра и элементарных частиц проводятся на высоком научном уровне и играют важную роль в укреплении научного потенциала страны. Значение этих направлений отражено в «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», подчёркивающей приоритетность развития науки и технологий для устойчивого развития государства.

Исследования, проведенные в данной диссертационной работе, соответствуют задачам, предусмотренным в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года “О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 гг.”, № УП-4958 от 16 февраля 2017 года “О дальнейшем совершенствовании системы после вузовского образования”, в Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 от 17 февраля 2017 года “О мерах дальнейшего совершенствовании деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательской деятельности” а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационная работа выполнена в

соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики II. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

